

USMON AZIM IJODIDA FOLKLOR AN'ANALARI VA BAG'ISHLOV SHE'RLAR

Boynazarova Gulbahor Rustamovna

ToshDO'TATU magistranti

Gulbahorboynazarova@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada Usmon Azim ijodidagi folklor namunalari topilgan va nima uchun ijodkor bu uslubdan foydalanganligi izohlangan. Ijodkorning bag'ishlov she'rlari tahlil qilinib, muallifning maqsadi ochib berilgan. Maqolani yozishda sinergetik, tavsifiy, statistik metodlardan foydalanilgan. Maqolaning dolzarbligi - ijodkorning maqsadini kitobxonga tushuntirish. Namuna sifatida maqoladagi she'riy parchalarni va ularning tahlilini ko'rsatish mumkin.

Kalit so'zlar: Folklor, bag'ishlov asar, sa'j, uslub, ruhiyat

Xalq yaratgan asarlar, uning o'lmas qahramonlari, badiiy ijodkorlik tajribasi yozma adabiyotning vujudga kelishi va taraqqiysi uchun zamin, boy ma'naviy-badiiy manba, mahorat maktabi bo'ldi. Shu ma'noda xalq ijodidan bahramand bo'lmagan, uning ma'naviy boyligidan oziqlanmagan bironta so'z san'atkorini tasavvur etib bo'lmaydi.

Shoir va adiblarning folklor asarlaridan ijodiy foydalanishi yozma adabiyotning taraqqiyotiga, shu bilan birga, xalq asarlarining saqlanib qolishi va yangicha umr ko'rishiga xizmat qiladi. Yozma adabiyot va folklor munosabati masalalarini o'rganish, muayyan shoir faoliyatida xalq og'zaki ijodining ijobiy ta'sirini tadqiq etish - o'sha davr adabiy jarayonining, ma'lum bir san'atkorga taalluqli mahorat sirlarini tasavvur qilish imkonini beradi.

Usmon Azim ijodini adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq qilar ekanmiz, uning ijodida ham folklor qoliplarini uchratamiz. Masalan, “Bahodir va

Malika”, “Baxshiyona”, “Elbek baxshi va Oytuman”, “Rivoyat” kabi asarlarining nomlanishining o‘ziyodayoq xalq og‘zaki ijodiga yaqinligini bilishimiz mumkin. Aslida, hech bir ijodkorning asarini folklorsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. U shoir-adiblarning qoniga singib ketgan qadriyat. Chunki doston yoki alla eshitmagan o‘zbek bolasi yo‘q. Faqat ijodkor folklordan turli usulda foydalanadi. Demak, bizning maqsadimiz Usmon Azim folklordan qay yo‘sinda foydalanganini aniqlash. Uning asarlarining o‘zgacha ruhiy olami bor. So‘z orqali chizilgan manzaralar o‘qirmanni ba‘zan olis-olislarga olib ketsa, ba‘zan oddiy hayotiy haqiqatni anglatadi. Usmon Azim ana shu falsafalarini anglatish uchun folklor an‘analaridan foydalanadi va ularga yangicha mazmun bag‘ishlaydi.

Elbek baxshi bir kambag‘alning to‘yini gurillatib, necha kampir-qizlarning yuragini dirillatib, ovuliga qaytib ketayotgan edi, bir karvonga duch keldi. Karvonning atrofida necha otiqlar chopishib kelishyapti, tuyalarni yetaklagan shotirlar qoqilib kelishyapti. Osmonga mushaklar otilgan, tuyalarga atlas kimxoblar yopilgan, yosh-yalanglar bo‘za ichib bo‘kirishgan, bir-biriga do‘q urishgan, tuya ustidagi qizlar ularga lab burishgan, karvonboshining peshonasi tirishgan - oldinda kelyapti. Elbek baxshi: «Huv, karvonboshi, yo‘l bo‘lsin?» - deb so‘radi, karvonboshining oldini o‘radi.

«Yo‘ldan qoch, bachchag‘ar, kelin olib ketayapmiz», - dedi karvonboshi.

deb bir so‘z aytib turgan ekan: (Usmon Azim.Saylanma.4-bet) “Baxshiyona” ning boshlanishidan shuni ko‘rishimiz mumkinki, ijodkor folklor obrazlari, folklorga xos nasriy qofiya ya‘ni sa‘jlar, xalqona qarg‘ishlardan foydalangan. Obrazlardan Oytuman obrazi Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asaridagi Kuntug‘di, Oyto‘ldi obrazlariga o‘xshash nomlangan. Chunki doston qahramonlarining nomlanishida ham xalq ijodi an‘analari ta‘siri seziladi. Turkiy xalqlarda “Kun” va “Oy” so‘zlari bilan birga ishlatiladigan nomlar keng tarqalgan bo‘lib, ular ko‘pgina doston va ertaklardan o‘rin olgan. Jumladan, o‘zbek xalq dostonlaridan «Oysuluv»dagi Oysuluv va uning o‘g‘li Kunbotir, “Kuntug‘mish” dostonining bosh qahramoni Kuntug‘mish, “Yusuf va Ahmad” dostonidagi beklar Kunxon va Oyxon, “Oygul bilan Baxtiyor” ertagidagi Oygul, “Alpomish”dagi Barchinoy,

“Manas” dagi Oychurek, Oykanish, To‘lg‘anoy obrazlari va boshqalar buning yorqin misolidir. She’rda Usmon Azim qofiyalar va so‘z boyligida ham folklarga murojaat qiladi. She’rning mazmuniy mundarijasiga esa ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lib, inson hayotida har ne bo‘lsa bo‘lsin, taqdiriga yozilganidan ayrilmasin degan ma’noni singdirgan. Bundan tashqari Usmon Azimning “Yurt farzandlari haqida”, “Elbek baxshi va Oytuman” asarlarida ham folklor an’analarini yaqqol ko‘rinadi. “Yurt farzandlari haqida” doston kabi boshlanadi. Ijodkor xalqona ohang, qofiya va so‘z boyligi bilan xuddi XV asrdagi dostonlarni gavidalantiradi, “Alpomish”, “Kuntug‘mish”, “Ravshan” dostonlarini o‘qigandek bo‘lasiz. Hatto mazmuniga singdirilgan pand-nasihat ham xalqona. Bugungi kun uchun aynan shu xususiyati ahamiyatli.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, Usmon Azim ijodida folklor an’analaridan asarlariga sodda til va xalqona ohang, ruh berish uchun foydalangan. Bundan tashqari ular orqali zalvorli mazmuni ham bera olgan. Uning folklor an’analaridan foyalanishini xalqimiz urf-odat, qadriyatlariga hurmat deb tushinish ham mumkin. . Usmon Azim bag‘ishlov she’rlarida ham ona Vatanga bo‘lgan muhabbatini, har bir insonga xos yurt sog‘inchi tuyg‘ularini, odam farzandi tabiatida uchraydigan noyob holatlarni yuksak poetik obrazlarda ifoda etadi. Tabiiyki, bu his-tuyg‘ular o‘quvchi qalbiga ko‘chib o‘tadi, qalbni, ruhiyatni yuksaltiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Davronova M. (2019). Hozirgi o‘zbek she’riyatida individual uslub poetikasi (Usmon Azim, Iqbol Mirzo, Faxriyor va Abduvali Qutbiddin she’riyati misolida) Filol.fan.dok.diss.Toshkent.
2. Umirova S.(2019)O‘zbek she’riyatida lingvistik vositalar va poetik individuallik (Usmon Azim she’riyati misolida). Filol.fan.dok.diss.Toshkent.